



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 01 | pp. 89-96 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

AGROKLASTERLAR BOSHQARUV VA MOLIYAVIY HISOBIDA MAHSULOT (ISH, XIZMAT)LAR SOTISH JARAYONI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH



Eshmuradov Ulug'bek Tashmurotovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasini mudiri,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Jahon amaliyotida agroklastlar faoliyatini huquqiy jihatdan kafolatlash, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimi yaratilgan. Shu bilan birga, har bir xo'jalik yurituvchi subyekt bozor talablariga to'liq javob beradigan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan birga uni o'z vaqtida sotish lozim. Buning uchun xo'jalik mexanizmining barcha elementlari mukammal bo'lishi va faoliyat ko'rsatishi maqsadga muvofiq bo'lib, sotish jarayoni hisobini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Agroklastlarda sotish jarayonlarining buxgalteriya hisobini takomillashtirish, boshqaruvning axborot ta'minotini yaxshilanishiga va etishtirilgan mahsulotlarni o'z vaqtida sotilishiga olib kelib, natijada subyekt ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

Mazkur maqolada buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida agroklastlar boshqaruv va moliyaviy hisobida mahsulot (ish, xizmat)lar sotish jarayoni hisobini takomillashtirish masalalari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Agroklastlar faoliyati, xo'jalik yurituvchi subyekt, sotish jarayoni hisobi, boshqaruv va moliyaviy hisob, 9419—"Umum sotish xarajatlari" schyoti, transfert baho.

Abstract. In world practice, a system of economic relations has been created that ensures the legal protection of the activities of agroclusters, the efficient use of material, financial and labor resources. At the same time, each business entity must develop competitive products that fully meet market requirements, as well as sell them in a timely manner. For this, it is desirable that all elements of the economic mechanism are perfect and functional, which requires improving the accounting of the sales process. Improving the accounting of sales processes in agroclusters will improve the information supply of management and increase the efficiency of processing and marketing of produced products in a timely manner.

This article describes the issues of improving the accounting of the sales process of products (works, services) in the management and financial accounting of agroclusters based on international accounting standards.

Keywords: Agrocluster activities, business entity, sales process accounting, management and financial accounting, account 9419—"General selling costs", transfer pricing.

Kirish

Jahonda qishloq xo'jaligi rivojlanishining xalqaro tajribalarini keyingi yillardagi tahlili har bir mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy

taraqqiyotini ta'minlashda, investitsion jozibadorlik uchun sharoitlar yaratish hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda agroklastarlarning o'рни va ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatmoqda.

Agroklastarlarda sotish jarayonining sintetik va analitik hisobini tashkil etish va yuritishning maqsadi, buxgalteriya hisobining maqsadidan kelib chiqib, sotish jarayoni bo'yicha barcha xo'jalik operatsiyalarini to'liq va uzluksiz aks ettirilishini ta'minlashi, ichki va tashqi axborotdan foydalanuvchilarni yetarli darajada sotish jarayoni bilan bog'liq axborot bilan ta'minlashi lozim. Bunda olingan axborotlar, tashqi foydalanuvchilar uchun xo'jalik yurituvchi subyektни sotish jarayonini tahlil qilishi va tegishli tartibda xulosa qilishlari, ichki foydalanuvchilar, xususan boshqaruvchilar uchun sotish jarayoni bo'yicha to'liq va uzluksiz ma'lumotlarni olishlari, tahlil qilishlari va boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari uchun yetarli bo'lishi lozim. Sotish jarayoni hisobi va hisoboti bo'yicha tayyorlanadigan axborotlarning bir qismi xo'jalik yurituvchi subyektlarning tijorat siri bo'lib, ushbu axborotlar korxona rahbariyatini ruxsatisiz oshkor etilmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning boshqaruvchilari, sotish jarayonini boshqarish uchun zarur bo'lgan axborotlarni boshqaruv va moliyaviy hisobdan oladilar. Shuning uchun, agroklastarlarda sotish jarayoni buxgalteriya hisobi, boshqaruv va moliyaviy hisobga bo'lingan holda tashkil etiladi va olib boriladi.

Rus iqtisodchisi O.N.Volkovani yozishicha: "Amaliyotda moliyaviy va boshqaruv hisoblarining o'zaro bog'liqligining ikki asosiy shakli mavjud: integratsiyalashgan (adabiyotlarda uning boshqa nomlanishi ham mavjud – yagona, unitar, monistik) va avtonom (yopiq, binar)".[6]

Bu borada professorlar B.A.Xasanov va A.A.Xashimovlarning fikrini aniqroq va to'laqonliroq deb hisoblaymiz: "Xalqaro tajribada korxonalarda boshqaruv hisobini tashkil etishning quyidagi ikkita tizimi mavjud:

- avtonom;
- integratsiyalashgan.

Integratsiyalashgan va avtonom hisob tizimlarini tashkil etish maqsadi, tarkibi, tamoyillari va vazifalari hamda ularni kompyuterlashtirish darajasi korxonaning yagona hisob yuritish siyosatida belgilab qo'yiladi. Boshqaruv hisobini tashkil etishning avtonom tizimining xususiyati shundaki, unda moliyaviy va boshqaruv hisobi chegaralari aniq belgilangan bo'ladi. Bunga ko'ra, moliyaviy hisobda xarajatlar iqtisodiy elementlari bo'yicha, boshqaruv hisobida esa kalkulyatsiya moddalarini bo'yicha tasniflanadi.

Boshqaruv hisobida xarajatlar hisobini olib borish uchun 9100-"Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar tannarxi hisobi schyotlari", 9400-"Davri xarajatlari hisobi schyotlari" kabi tranzit schyotlardan foydalaniladi. Integratsiyalashgan hisob tizimida xo'jalik muomalalarini ifodalashda tranzit schyotlardan emas, balki yagona schyotlar tizimidan foydalaniladi. Bunda qoldiqqa ega bo'lgan schyotlar bir vaqtning o'zida ham moliyaviy hisobga ham boshqaruv hisobiga tegishli bo'ladi".[13]

A.X.Pardayev va Z.A.Pardayevalarning bu masaladagi nuqtai nazarini quyidagicha: "Xorijiy mamlakatlar amaliyotida moliyaviy (daromadlar va xarajatlarning tizimli tahlili) va boshqaruv hisobi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik darajasi bo'yicha ikki tizim qo'llaniladi: monistik va avtonom. Monistik tizim – buxgalteriya hisobi schyotlarida to'g'ri va qarama-

qarshi aloqadorlik asosida tizimli va muammoli hisobni birlashtirib, yaxlit holga keltiruvchi tizim. Tizimli hisob buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida ishlab chiqarish xarajatlarini, tayyor mahsulot va uning sotilishini aks ettirish yo'li bilan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini, uning moliyaviy imkoniyatlarini baholash imkonini beradi. Avtonom tizim – tizimli va muammoli hisoblarning alohida-alohida tuzilishi bilan ifodalanadi. Moliyaviy va boshqaruv hisobi o'rtasidagi aloqa bir xilda nomlangan juft nazorat hisobvaraqlari amalga oshiriladi".[10]

A.A.Karimov va D.I.Erkinovlar ham ushbu usullar to'g'risida quyidagilarni yozishgan, "Yuqorida keltirilgan 2 ta usul boshqaruv hisobining moliyaviy hisob bilan bog'liqlik darajasiga ko'ra klassifikatsiyasi hisoblanadi. Bunday sharoitda boshqaruv hisobini tashkil etishning ahamiyati katta bo'lib, ulardan biri integratsiyalashgan usul xalqaro adabiyotlarda "monistik", ikkinchisi avtonom usul esa "dualistik" usul deb yuritiladi. Bu usulning bunday tartibda nomlanishi schyotlar tizimi bilan bog'liqlik darajasiga ko'ra belgilanadi, chunki, avtonom usulda moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi ma'lumotlari yagona schyotlarda emas, balki har bir hisob uchun bir-biriga bog'liq bo'lmagan alohida schyotlar rejasiga ko'ra shakllantiriladi. Integratsiyalashgan usulda esa yagona schyotlar rejasidan, ya'ni 21-sonli buxgalteriya hisobining milliy standartidan foydalaniladi.

Boshqaruv hisobi avtonom usulda moliyaviy hisobdan mustaqil ravishda, alohida yuritiladi. Ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash jarayoni boshqaruvning aniq talablariga ko'ra amalga oshirilishiga mo'ljallangan bo'ladi. Moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi maqsadlaridan kelib chiqqan holda yakuniy natijalarda farq kuzatilishi mumkin".[9]

Sotish jarayonini boshqaruv hisobida aks ettirishda har bir sotilgan mahsulot (ish, xizmat) bo'yicha sotish kanallari, sotilgan mahsulot miqdori, sotishdan olingan daromad, sotilgan mahsulot tannarxi, sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larni har biri bo'yicha sotish kanallari va jami moliyaviy natija bo'yicha axborotlar olish imkoni bo'lishi lozim.

Shunday qilib, sotish jarayoni xo'jalik subyektini xo'jalik mablag'larining doiraviy aylanishini yakunlaydi va bu o'z navbatida subyektga davlat byudjeti, ssudalar bo'yicha banklar, ishchi va xizmatchilar, mol yuboruvchilar oldidagi majburiyatlarni bajarish, ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash imkoniyatini beradi. Sotish rejasini bajarmaslik aylanma mablag'lar aylanishini sekinlashiga, xaridorlar oldida shartnoma vazifalarini bajarmaganligi uchun jarima to'lashga, to'lovlarni kechikishiga, subyektning moliyaviy holatini yomonlashishiga olib keladi.

Tahlil va natijalar

Xo'jalik subyektini sotish hajmi bilan bir qatorda foyda summasini ham rejalashtiradi, chunki, mahsulotning sotish (shartnoma) narxi belgilanganda uning tarkibiga ma'lum summada yoki foizda foyda (daromad) summasi ham kiritiladi. Agar shartnoma (reja) bo'yicha sotishga tegishli mahsulotlar miqdorini shartnoma bahosiga ko'paytirsan reja bo'yicha ularni sotish qiymati kelib chiqadi, foyda foiziga qarab esa reja foyda summasi hisoblab chiqiladi. Bu byudjetga foydadan bo'nak ajratmasini to'lash uchun baza bo'lib hisoblanadi.

Korxona aylanma mablag'ining tarkibiy qismi hisoblangan tayyor mahsulotlar eng kam bahoda baholanishi kerak: tannarxida yoki sof sotish qiymatida.[1]

Tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarxi hisobot davri tugagandan keyin

aniqlanishi lozim, biroq mahsulotlarning harakati har kuni sodir bo'lganligi uchun joriy hisobda mahsulotni shartli bahoda baholash lozim. Tayyor mahsulotlar harakatining kundalik hisobi ishlab chiqarish reja tannarxida yoki subyektning shartnoma baholarida yoki hisob bahosi deb nomlanadigan chakana jo'natish baholarida yuritiladi.

Xususan, mahsulot birligining reja tannarxi subyektda ishlab chiqilib, oy oxirida tayyor mahsulotlarning har bir guruhlariga bo'yicha farq summasini yoki foizini hisoblash orqali haqiqiy tannarxga yetkaziladi. Kalkulyatsiya farq summasi va foizi mahsulotning oy boshiga qoldig'i hamda uning oy davomidagi kirimiga qarab hisoblab chiqiladi. Farqi tejalganligini yoki subyekt tomonidan ortiqcha xarajatga yo'l qo'yilganligini ko'rsatadi va shuning uchun ishlab chiqarish jarayonidagi uning ish natijalarini ta'riflaydi. Tayyor mahsulotlar qaysi schyotlarda hisobga olingan bo'lsa, kalkulyatsiya farqlari ham shu schyotlarda tejalgan bo'lsa qizil siyohda storno (qayta yozuv) qilib, ortiqcha xarajat bo'lsa oddiy siyohda aks ettiriladi. Farq foizi va jo'natilgan mahsulotning reja tannarxi sotilgan hamda ombordagi oy oxiriga qolgan mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlash imkonini beradi.

Agroklastarlarda sotish jarayonini quyidagi ikki guruhga ajratishimiz mumkin:

1. Boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar va shaxslarga sotish.
2. Xo'jalikning o'z ichki bo'linmalari o'rtasida va xodimlariga sotish.[10]

Mahsulotlar hisobini buxgalteriya schyotlarida hisobga olishning tahlili shuni ko'rsatadiki, xo'jaliklarda sotilgan har bir mahsulot turi bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlash, ularni har birining iqtisodiy samaradorligini aniqlash imkonini bermaydi, natijada mahsulot ishlab chiqarishda mahsulot tannarxini boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish imkoniyatini cheklaydi.

Shuning uchun, mahsulotlar sotishda boshqaruv hisobining tamoyillaridan kelib chiqqan holda, 9410–“Sotish xarajatlari” schyoti bo'yicha har bir mahsulotni sotish xarajatlari hisobi bo'yicha alohida analitik schyotlar ochish, umumiy bo'lgan sotish xarajatlarini esa hisobot davrining oxirida sotilgan mahsulotlar tannarxiga mutanosib ravishda taqsimlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agroklastarlarda o'z ichki bo'linmalariga mahsulotlar sotish jarayonida sotish xarajatlarini alohida hisobga olib bormaydi, bunday xarajatlar bo'lsa, ishlab chiqarish bo'linmasi xarajatlari tarkibida hisobga oladi. O'z ishlab chiqarish bo'linmalariga mahsulotlar tannarxda o'tkaziladi va foyda yoki zarar ko'rmaydi.

Bunday holatda, ishlab chiqarish bo'linmalari faoliyatini baholash muammoli bo'lib, ushbu muammoni hal etish uchun, agroklastarlarda o'z ichki bo'linmalari va xodimlariga mahsulotlar sotish jarayonida sotiladigan mahsulotni transfert bahoda sotishni taklif qilamiz. Bunda, subyekt o'zining ichki bo'linmalariga sotiladigan mahsulotlarga transfert baho o'rnatishi va buni o'zining “Hisob siyosatida” aks ettirishi lozim.

Shuningdek, agroklastarlarni o'z ichki bo'linmalariga mahsulotlar sotish jarayonida, sotilgan mahsulotlar buxgalteriya schyotlarida quyidagicha aks ettirish taklif etiladi:

1. Debet 9110–“Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi” schyoti.

Kredit 2810–“Ombordagi tayyor mahsulotlar” schyoti - Sotilgan mahsulot tannarxi hisobdan chiqarilganda.

2. Debet 2010–“Asosiy ishlab chiqarish” schyoti.

Kredit 9010–“Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar” schyoti – Sotilgan

mahsulotning o'rnatilgan transfert bahodagi qiymatiga.

3. Debet 9010-"Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar" schyoti.

Kredit 9910-"Yakuniy moliyaviy natija" schyoti - Sotilgan mahsulotdan olingan daromad yakuniy moliyaviy natijaga o'tkazilganda.

4. Debet 9910-"Yakuniy moliyaviy natija" schyoti.

Kredit 9110-"Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi" schyoti - Sotilgan mahsulot tannarxi yakuniy moliyaviy natijaga o'tkazilganda.

5. Sotilgan mahsulot bo'yicha moliyaviy natija aniqlanganda:

a) Foyda bo'lsa: Debet 9910-"Yakuniy moliyaviy natija" schyoti.

Kredit 8710-"Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)" schyoti

b) Zarar bo'lsa: Debet 8710-"Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)" schyoti.

Kredit 9910-"Yakuniy moliyaviy natija" schyoti.[3]

Mahsulot (ish, xizmat)lar sotish jarayoni hisobini takomillashtirish orqali har bir sotilgan mahsulot (ish, xizmat) bo'yicha xarajatlar, daromadlar va moliyaviy natijani tahlil qilish asosida, ular samaradorligini belgilash muhim ahamiyatga ega. Agroklasterda sotilgan mahsulot (ish, xizmat) samaradorligi orqali kelgusida yetishtirilishi va sotilishi lozim bo'lgan mahsulot (ish, xizmat) hajmi aniqlanib, tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Bularning barchasi buxgalteriya hisobidan olingan axborotlar asosida amalga oshiriladi.

Amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida sotish xarajati tranzit schyot bo'lgan 9410-"Sotish xarajatlari" schyotida hisobga olib boriladi. "9410-"Sotish xarajatlari" schyotida mahsulotni sotish bo'yicha xarajatlar, ya'ni, mahsulotni iste'molchiga yetkazib berish bilan bog'liq, transport vositalariga ortish, marketing bilan shug'ullanuvchi xodimlar va bo'limlarning xarajatlari va boshqalar aks ettiriladi. Hisobot davrining oxirida 9410-"Sotish xarajatlari" schyoti 9910-"Yakuniy moliyaviy natija" schyoti bilan bog'langan holda yopiladi".[2]

Ushbu schyotning yuritilishini tahlili shuni ko'rsatadiki, sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning bir qismi bevosita bir mahsulot (ish, xizmat) sotishga tegishli bo'lsa, ayrim sotish xarajatlari bir nechta mahsulot (ish, xizmat)ga yoki subyekt bo'yicha butun sotilgan mahsulot (ish, xizmat)ga tegishli bo'ladi. Shuning uchun 9410-"Sotish xarajatlari" schyotida olib boriladigan sotish bilan bog'liq xarajatlar bevosita tegishliligiga qarab ajratish va hisobini quyidagi schyotlarda yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi:

9411 – "Sut sotish xarajatlari";

9412 – "Sariyog' sotish xarajatlari";

9413 – "Kefir sotish xarajatlari";

9414 – "Smetana sotish xarajatlari";

9415 – "Qaymoq sotish xarajatlari"

9416 – "Pishloq sotish xarajatlari"

9417 – "Tvorog sotish xarajatlari"

9418 – "Brinza sotish xarajatlari"

9419 – "Umum sotish xarajatlari".[7]

Yuqoridagi barcha schyotlar tranzit schyotlar bo'lib, uning debet tomonida xarajatlar

hisobga olinsa, kredit tomonida ushbu xarajatlarni hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi.

Ushbu schyotlarda buxgalteriya yozuvlari yuritish quyidagicha amalga oshiriladi.

9419-“Umum sotish xarajatlari” schyotida subyekt bo'yicha jami mahsulotlarni sotish bilan bog'liq xarajatlar olib boriladi. Bularga agroklastarlarda bevosita mahsulot sotish bilan shug'ullanadigan xodimlar ish haqi, sug'urta to'lovlari, foydalanadigan transport vositalar amortizatsiyasi, yoqilg'isi va boshqa xarajatlar hisobga olinadi. Ushbu xarajatlar yil oxirida sotilgan mahsulotlarning sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari (taqsimlash bazasi bo'ladi) salmog'iga mos ravishda taqsimlanadi.

Tadqiqot davomida ushbu xarajatlar hisobini o'rganganimizda, “O'zbekim O'zbekiston-Germaniya” MChJ da 2024-yilda bevosita sotilgan mahsulotlarga tegishli xarajatlar quyidagicha bo'lgan: [13]

Sut sotish xarajatlari – 61560 ming so'm

Sariyog' sotish xarajatlari – 43320 ming so'm

Kefir sotish xarajatlari – 20320 ming so'm

Smetana sotish xarajatlari – 21460 ming so'm

Qaymoq sotish xarajatlari – 14840 ming so'm

Pishloq sotish xarajatlari – 5840 ming so'm

Tvorog sotish xarajatlari – 10380 ming so'm

Brinza sotish xarajatlari – 2790 ming so'm

Umum sotish xarajatlari – 112530 ming so'mni tashkil etgan.

Barcha mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan umum sotish xarajatlari – 112530 ming so'mni tashkil etgan va xarajatlar quyidagicha taqsimlanadi: (1-jadval).

1-jadval

“O'zbekim O'zbekiston-Germaniya” MChJda chorvachilik mahsulotlari sotish xarajatlarini taqsimlash qaydnomasi[7]¹

ming so'm hisobida

T.r	Sotilgan mahsulot turi	Bevosita sotish xarajati (taqsimlash bazasi)	Salmog'i, %	Umum sotish xarajati	Jami xarajat	Schyotlar bog'lanishi	
						Debet	Kredit
1	Sut	61560	34,10	38610	100170	9411	x
2	Sariyog'	43320	24,0	27210	70530	9412	x
3	Kefir	20320	11,26	12040	32360	9413	x
4	Smetana	21460	11,89	13940	35400	9414	x
5	Qaymoq	14840	8,22	9720	24560	9415	x
6	Pishloq	5840	3,24	3610	9450	9416	x
7	Tvorog	10380	5,75	6200	16580	9417	x
8	Brinza	2790	1,55	1200	3990	9418	x
	Jami	180510	100,0	112530	293040	x	9419

Taklif etilgan 9411-“Sut sotish xarajatlari” schyotining debet tomonida bevosita sut sotish bilan bog'liq xarajatlar: transport tayyorlov xarajati, sut sotish bilan bog'liq xodimlarni mehnat haqi, sug'urta to'lovlari, foydalanilgan asosiy vositalar va materiallar

¹ “Samarqand viloyatidagi “O'zbekim O'zbekiston-Germaniya” MChJ hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

sarfi hamda boshqa xarajatlar hisobga olinadi. Ushbu xarajatlarni hisobdan chiqarish 9910-“Yakuniy moliyaviy natija” schyotiga olib borish bilan emas, 9110-“Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi” schyotiga olib borilib yopiladi. Xuddi shuningdek, quyidagi tartibda 9412–9418 schyotlarda olib borilgan xarajatlar ham hisobga olinadi. Ushbu 9411-“Sut sotish xarajatlari” schyotning boshqa schyotlar bilan korrespondensiyasi quyidagicha bo‘ladi (2-jadval):

2-jadval

9411–“Sut sotish xarajatlari” schyotining bog‘lanishi[7]²

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi		Summasi (ming so‘m)
		Debet	Kredit	
1	Sutni sotishda chetdan jalb etilgan transport vositalari xarajatlari	9411	6010	6600
2	Sutni sotishda o‘z transport vositalaridan foydalanish xarajatlari	9411	2310	3670
3	Sut sotish reklamasida chet tashkilotlar xizmatidan foydalanish xarajati	9411	6010	1120
4	Sutni sotish jarayonida foydalanilgan o‘z asosiy vositalarning eskirishi	9411	0210-0299	6100
5	Sutni sotish jarayonida ishlagan xodimlar mehnat haqi xarajatlari	9411	6710	15230
6	Hisoblangan mehnat haqiga tegishli yagona ijtimoiy to‘lov xarajatlari	9411	6520	1830
7	Sutni sotish jarayonida sarflangan idishlar va idishbop materiallar xarajatlari	9411	1060	3320
8	Sutni sotish jarayoniga tegishli xizmat safarlari xarajatlariga	9411	4220	740
9	Umum sotish xarajatlarini sutni sotish jarayoniga tegishli qismiga	9411	9419	38610
10	Sutni sotish bilan bog‘liq xarajatlar hisobdan chiqarilganda	9110	9411	100170

Xulosa va takliflar

Fikrimizcha, mahsulotlar sotishning buxgalteriya hisobida taklif etilayotgan buxgalteriya schyotlari asosida sotilgan har bir mahsulot turi bo‘yicha moliyaviy natijalar va iqtisodiy samaradorligini aniqlash, har bir mahsulot ishlab chiqarishda mahsulot hajmi va tannarxini boshqarish bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Buxgalteriya boshqaruv hisobining tamoyillaridan kelib chiqqan holda, agroklastarlarda har bir sotilayotgan mahsulotlar bo‘yicha ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlash zaruriyati mavjud. Shuning uchun agroklastarlar “Hisob siyosati”ga sotish bilan bog‘liq xarajatlarni har bir mahsulot (ish, xizmat) bo‘yicha alohida hisobga olish bo‘yicha buxgalteriya schyotlari va sotish xarajatlarini sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larga taqsimlash usuli taklif qilinib, ushbu buxgalteriya schyotlari va sotish

² Muallif ishlanmasi

xarajatlarini taqsimlash usulini agroklastlarlar “Hisob siyosati”ga kiritilishi, sotish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan unumsiz xarajatlarni kamaytirish hisobiga tannarxni 5-7%gacha pasaytirish va sotilgan har bir turdagi mahsulotning moliyaviy natijasini alohida aniqlashga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi 4-son BHMS “Tovar-moddiy zaxiralar”. 2020-yil 28-may, 24-son. [/lex.uz](http://lex.uz)
2. O‘zbekiston Respublikasi 21-son BHMS “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”. 2024-yil 14-noyabr, 191-son. [/lex.uz](http://lex.uz)
3. Abdunazarova, S., Aliqulova, Z., & Eshmuradov, U. B. (2024). Agroklastarlarda biznes jarayonlari sotish hisobini takomillashtirish. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).
4. Alikulov, A., Eshmuradov, U., Yuldashev, S., Raximova, U., Yorbekova, D., & Ishturdiyev, H. (2024). Improving cost accounting for sales of agricultural products. *World of Science*, 7(4), 160-169.
5. Alikulov, A., Eshmuradov, U., & Abdushukurov, K. (2024). Improving Cost Accounting for Sales of Agricultural Products in Farms. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(1).
6. Волкова О.Н. (2006). Управленческий учет: учеб.- М.: ТК Велби, изд-во “Проспект”. – с. 472.
7. Eshmuradov U.T. (2025). Agroklastarlarda sotish jarayoni hisobi va auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: “Public Publish Printing” MChJ. – 59 b.
8. Eshmuradov, U. B. (2025). AGROKLASTERLARDA ICHKI SOTISH JARAYONIDA TRANSFERT BAHOLARNI BELGILASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT*, 3(12).
9. Karimov A.A., Erkinova D. (2017). Boshqaruv hisobini tashkil etishning uslubiy jihatlari: avtonom va integratsiyalashgan tizimlar. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. 4-son, avgust.
10. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. -T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2014. - B 390.
11. Tashmuratovich, E. U. (2023). Improvement accounting of process realization in farm enterprises. *Journal of veterinary science*, 6(5), 20-28.
12. Ulugbek, T. E., & Abdimumin, I. A. (2014). Improvement Accounting Of Sales Agricultural Products On Farm Enterprises. *SEA-Practical Application of Science*, (5), 649-654.
13. Xasanov B., Xashimov A. (2011). Boshqaruv hisobi. Darslik –T.: “Yangi nashr” nashriyoti. – B. 222.
14. Samarqand viloyatidagi “O‘zbekim O‘zbekiston-Germaniya” MChJ hisobot ma’lumotlari

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

